



**NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**  
*2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichmabosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar**

**29 712**

**117,3 %**



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar**

**28 811**

**116,1 %**



**Yangi tashkil etilgan korxonalar  
(2020- yilda)**

**3 820**

**96,7 %**

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkga ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona





Xususiy korxona



Aksiyadorlik jamiyat



Boshqalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyatini bilan bo'lib zarar uchun o'zlar qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra)




(o'tgan yilga nisbatan)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2019- y. ■ 2020- y.

## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-iyul oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

*(2020- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)*



2020- yil yanvar-iyul oylarida 3 820 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,2 % kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 678 ta, xususiy korxonalar – 703 ta, oilaviy korxonalar – 303 ta, muassasalar – 31 ta va boshqalar – 105 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



■ Ro'yxatdan o'tgan ■ Faoliyat ko'rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan

Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 824 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 374 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 793 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 351 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 303 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 169 taga yoki 226,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 16 586 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 353 taga yoki 125,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 200 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 124 taga yoki 123,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 678 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 1,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



■ Ro'yxatdan o'tgan  
■ Faoliyat ko'rsatayotgan  
■ Yangi tashkil etilgan

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 258 tani tashkil etib, ulardan 250 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 58 taga yoki 29,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 31 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
*(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)*

Davlatlar	Jami	Shundan	
		qo'shma korxona	xoriliy korxona
Rossiya Federatsiyasi	50	38	12
Qozog'iston Respublikasi	13	9	4
Qirg'iziston Respublikasi	10	9	1
Tojikiston Respublikasi	10	8	2

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)*



## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




*Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 921 ta), Chust (2 364 ta), Namangan (2 069 ta), Uychi (1 887 ta) va To'raqo'rg'on (1 783 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 469 ta), Norin (1 355 ta) hamda Mingbuloq (1 296 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.*

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
*(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)*

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Xorijiy korxona	Qo'shma korxona
Namangan viloyati	250	89	161
Namangan shahri	78	29	49
Mingbuloq	7	5	2
Kosonsoy	24	5	19
Namangan	13		13
Norin	11	4	7
Pop	24	8	16
To'raqo'rg'on	18	8	10
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	6	4	2
Chortoq	19	7	12
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	12	6	6


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (34,8 %), Chust (8,2 %), Namangan (7,2 %), Uychi (6,5 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Kosonsoy (6,1 %), Pop (6,1 %), Uchqo'rg'on (5,6 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,6 %), Mingbuloq (4,5 %) tumanglar hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-iyul oylarida, birlikda)


2020- yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (20,8 %), Pop (9,9 %), Namangan (8,7 %), Uychi (8,2 %), To'raqo'rg'on (7,7 %), Chust (7,7 %), Mingbuloq (6,8 %), Uchqo'rg'on (6,3 %), Kosonsoy (6,1 %), Yangiqo'rg'on (6,1 %), Norin (6,0 %), Chortoq (5,7 %) tumanlari ulushiga ega.



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 385 ta (jamidagi ulushi 39,4 %), Uychi 1 136 ta (7,0 %), Namangan 1 089 ta (6,7 %), Pop 1 039 ta (6,4 %), Chortoq 977 ta (6,0 %), Kosonsoy 952 ta (5,9 %), Chust 868 ta (5,4 %), Yangiqo'rg'on tumani 857 ta (5,3 %), Norin 784 ta (4,8 %), To'raqo'rg'on 773 ta (4,8 %), Uchqo'rg'on 748 ta (4,6 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kami Mingbulog 592 ta (3,7 %) tumaniga hissasiga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-iyul oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (91 ta), Yangiqo'rg'on (48 ta), To'raqo'rg'on (45 ta), Uychi (31 ta), Namangan shahri (23 ta) tumanglari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Kosonsoy (11 ta), Mingbuloq (9 ta), Chust ( 7 ta), Norin (4 ta) tumanglari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'satkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtি-vaqtি bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagи "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariiga ajratiladi.